



SOME REFLECTIONS ON WOMEN IN THE WORKS OF ABDURAUFG FITRAT

Yulduzkhon Umarova

National University of Uzbekistan, Faculty of History

Basic Doctoral Student in the Modern History of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadid movement, Turkestan, enlightenment, Abdurauf Fitrat, women's issues, women's education, family, Jadid schools.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article examines the formation of the Jadid movement and its role in the socio-cultural life of Turkestan, as well as the development of enlightenment ideas in the region. Particular attention is paid to the analysis of women's issues in the works of one of the prominent representatives of the Jadid movement, Abdurauf Fitrat. The study explores Fitrat's views on the social status of women, their role in the family, the importance of women's education, and their participation in social life. Based on historical and scholarly sources, the article highlights Fitrat's contribution to promoting women's education and enhancing their role in society.

ABDURAUFG FITRAT ASARLARIDA XOTIN-QIZLAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Yulduzxon Umarova

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

O'zbekistonning eng yangi tarixi tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, Turkiston, ma'rifatparvarlik, Abdurauf Fitrat, xotin-qizlar masalalari, ayollar ta'limi, oila, jadid maktablari.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni, uning Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining rivojlanishi tahlil qilindi. Shuningdek, jadidchilik harakatining yetuk namoyondalaridan biri Abdurauf Fitratning ilmiy va badiiy merosi asosida xotin-qizlar masalasiga doir qarashlari o'rganiladi.

Maqolada Fitrat asarlarida ayollarning ijtimoiy mavqei, oiladagi o'rni, ta'lim olish zarurati va jamiyat taraqqiyotidagi roli tarixiy hamda ilmiy manbalar asosida tahlil etildi. Tadqiqot natijasida Fitratning xotin-qizlar ta'limi va ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratgani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЖЕНЩИНАХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУРАУФА ФИТРАТА

Юлдузхон Умарова

*Национальный университет Узбекистана, исторический факультет
Докторант кафедры Новейшая история Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: джадидское движение, Туркестан, просветительство, Абдрауф Фитрат, женский вопрос, образование женщин, семья, джадидские школы.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается процесс формирования джадидского движения, его роль в общественно-культурной жизни Туркестана, а также развитие идей просветительства. Особое внимание уделяется анализу взглядов одного из ведущих представителей джадидизма – Абдурауф Фитрат на женский вопрос на основе его научного и художественного наследия. В статье исследуются вопросы социального положения женщин, их роли в семье необходимости образования и участия в общественной жизни, отражённые в произведениях Фитрата. На основе исторических и научных источников раскрывается значимость идей Фитрата, направленных на повышение роли и активности женщин в обществе.

Kirish. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi.[1]

Muhokama va natijalar. Jadidchilik harakati namoyondalari dastlab, o'lkada milliy ozodlik harakati bilan ish olib borgan bo'lsa, keyinchalik ular aholini yanada ma'rifatli qilib, ma'naviyatini yuksaltirish faoliyati shug'ullanganlar. Jadidchilik davlat, tuzum, boshqaruvni

isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'yg'an g'oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim ekani barchaga ayon. Shunday ekan, bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistondan ulkan tarixiy bir o'lkada, ko'p asrlar davom etib kelayotgan hayotning sharqona tarzini saqlagan holda, uni g'arb va Ovrupa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlaganini hamda XX asr tongidan yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini izlaganini, kurashga kirishganini ko'rsatuvchi sertarmoq va murakkab jarayonlarni o'zida istifoda etdi.[2] Turkiston hududida yuz bergan bunday vaziyatlar jamiyatdagi ayollarning o'rni va mavqeiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar jamiyatni taraqqiy ettirish, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali milliy uyg'onishga erishish mumkin deb hisoblaganlar. XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida ayollarning huquq va erkinliklari ancha cheklangan edi. Shu sababli jadid ma'rifatparvarlari ayollar erkinligi va ta'limi masalasini ko'tarib chiqdilar.

Ana shunday ma'rifatparvar ziyolilardan biri Abdurauif Fitrat bo'lib, u 1910-yillardan to 1937-yillargacha uzluksiz ijod qilib, adabiyot, siyosat, tarix, falsafa, pedagogika va musiqa sohalarida ham faoliyat yuritgan. U talay she'r, hikoya, pyesa, adabiy-tanqidiy maqolalar, qo'llanmalar, til-adabiyotni o'rganishga oid darsliklar yozdi, Bedil, Umar Xayyom kabi klassiklar asarlaridan tarjimalar qildi, ularning ilmiy-falsafiy, poetik ta'limotlarini chuqur o'rgandi. O'rgandigina emas, ularning buyuk maktablaridan ijodiy foydalandi. Bunday g'ayrat va shijoat bilan o'qish, o'rganish Fitratning katta shoir, yozuvchi va oilam darajasiga ko'tardi. Zotan, O'rta Osiyo olimlari va yozuvchilari orasida birgina Fitrat Leningrad (avval va hozirgi Sank-Peterburg) Davlat dorilfununi tomonidan 20-yillardayoq professorlik unvonini olishga muvassar bo'ldi.[3] Fitrat o'z asarlarida jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy o'zlikni anglash, ma'rifatli jamiyat qurish va jamiyatdagi barcha insonlarni ilm-ma'rifatli qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, ayollarning ham ta'lim olishi, ilm-fanni o'rganishi va ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish kabi qarashlarini o'sha davrda ilg'or surgan. Fitrat o'z asarlarida: "Modomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o'rganishlari shartdir" – deya ta'kidlaydi.[4]

Fitrat jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ta'lim va ma'rifatning o'rni nihoyatda muhim ekanligini, shuningdek, ayollarning savodli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deya hisoblagan. Chunki ona savodli bo'lsa, kelajak avlod ham bilimli va ma'rifatli bo'lib yetishadi. Fitrat o'z asarlarida ayollarni ta'lim olishga undaydi va ularning savodsizligi jamiyat rivojiga to'sqinlik qilayotgan muhim muommalardan biri ekanini qayd etadi. Chunki, har bir bola go'dakligidan onasining tarbiyasiga mahkum, binobarin, biz dastlabki tarbiyani o'z onamizdan olamiz, bu onalar bashariyatning tarbiyachilaridir.[5] Shuningdek, Turkistonda

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi jadid ma'rifatparvarlarimiz ham ayollar ta'limini rivojlantirish zarurligini o'z asarlarida ta'kidlaganlar. Fitratning qarashlari ham ushbu umumiy ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq edi.

Abdurauf Fitrat xotin-qizlarni jamiyatdagi o'rni, ularni bilim olishi, kamolga yetib oila qurishi masalasiga faqat an'anaviy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham yondashgan. Uning fikricha, ayollarning ma'rifatli bo'lishi oiladagi tarbiya sifatini oshiradi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Fitrat ayollarni oila qurib, faqat uy ishlari bilan cheklab qo'yish noto'g'ri ekanligini ham qayd etadi. Ularni voyaga yetgunlarigacha shuningdek, voyaga yetib oila qurganlaridan so'ng ta'lim olishi zarurligini, madaniyat va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham faol bo'lishlari kabi fikrlarini o'z asarlarida keltirgan. Fitrat o'zining "Oila" asarida "o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarishlari uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur"- deya ta'kidlaydi.[6]

Xulosa qilib aytganda. Turkiston tarixida jadidchilik - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida yirik o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan harakatdir. O'lkada rivojlanish va taraqqiy ettirishning yuksak yo'li bo'lgan ma'rifat-ma'naviyat orqali erishish uchun kurashilgan davrdir. Mana shunday bir davrda ijod qilgan Abdurauf Fitrat ham o'z davrining yetuk ma'rifatparvar ziyolilaridan biri sifatida doimo qadrlanadi. Fitratning ayollar masalasiga oid qarashlari jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy taraqqiyotga erishishga qaratilgan edi. Fitratning asarlaridagi ayollar masalasida - ayollarning savodli bo'lishi, ta'lim olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi zarurligini o'z asarlarida asoslab bergan. Uning fikricha, ayolning ma'rifatli bo'lishi oilaviy muhitni sog'lomlashtiradi, farzand tarbiyasini takomillashtiradi hamda kelajak avlodning intellektual salohiyatini oshiradi. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik va taraqqiyotga erishish mumkinligini ilgari suradi. Uning bu boradagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, xotin-qizlar ta'lim olishida katta imkoniyatlar berilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to'plam№1(1999).Toshkent.: Universitet, 32-b.

2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to'plam№1(1999).Toshkent.: Universitet, 4-b.

3.Aliyev A.(2000). Ma'naviyat, qadriyat va badiyat. Toshkent: Akademiya,363-b

4.Jadidlar.uz. 2026.13.03. <http://jadid.sosgroup.uz/jadid/say>

5. Fitrat, A. (1991). Oila. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

6. Fitrat, A. (1991). Oila. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.